

ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN TOSHKENTNING EGALLANISHI UYDIRMA VA HAQIQAT

Shaxnoza Xolikulova

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Barchinoy Pardayeva

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`rta Osiyoga Rossiya imperiyasi bosqini, Toshkentning egallanishi jarayonidagi shahar xalqining mustaqillik saqlash uchun jasorati va bir guruh kishilarning xoinligi bayon etilgan.

Kalit so`zlar: Rus hukunmati, chorizm istilosi, Toshkent uchun jang.

Vatan mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi, mustamlakachilik sharoiti tufayli haqqoniy yoritilmaganini ko`rishimiz mumkin. Mustaqillik tufayli ulug`vor ming yillik tariximizni o`rganishga imkoniyatlar yaratildi.

“Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim mutaxasislarga murajaat qilmoqchiman: Sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga manaviy kuch qudrat baxsh etsin, g`ururini uyg`otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga yuksak marraga chiqmoqchi ekanmiz bizga yorug` g`oya kerak. Bu g`oyaning zamirida xalqimizning o`zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o`zlikni anglash mumkin emas”.

Yurtdoshlarimiz orasida o`zimizning haqiqiy tarixni yaxshi bilmaslik oqibatida ajdodlrimizni ayblash kuchli tus olganini ko`rishimiz mumkin. Bosqinchi ruslar yozgan uydurma gaplar mustamlaka davrida xalqimizga simgdirilib brogan. Hozirgi kundagi dolzarb muammo tariximizni chuqurroq o`rganib chorizm istilosi davrida turli soxtalashtirilgan malumotlarni yuzaga chiqarishimiz kerak. Rus hukumati XVI asrning 2-yarmidan boshlab Astarxon Qozon Sibri bosib olgach, O`rta Osiyo va Qozog`istonga qo`shni bo`lib oladi. Qozog`istonga chegara xavfsizligini taminlash bayrog`I ostida asta sekin ichki tomonga siljiy boshlaydi. Kichik juz 1731-yil 1731-1740-yillarda esa Katta juz qozoqlarining aksariyati Rus davlatiga tobeligiga o`tishi qo`l keladi. Bunday bo`lishini bir zamonlar Pyotr I orzu qilgan edi. Sharq bilan aloqada degan edi u-Qozog`iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab pul sarflansa ham Qozog`istonni bo`ysintirish yoki hech bo`lmasa u yerda Rossiya tasirini o`rnatish zarurdir deb takidlagan edi. Qozog`istonga harbiy qal`a va savdo markazlari qurishadi. Rossiya bular orqali o`zbek xonliklarini zabt etish muhim tayanch vazifa bo`lib o`taydi. XIX asrning 50-60-yillarida o`zbek xonliklarida achinarli ahvol qisqa bir davrda emas balki ko`p yillik tarixiy jarayonni mahsuli sifatida namoyon bo`lgan.

Rossiya imperiyasi harbiy harakatlari arafasida Qo`qon xonligining ijtimoiy siyosiy ahvoli murakkab ahvolda edi o`sha davr tarixchisi Muhammad Solih Toshkandiy Rus davlati xonlikdagi ciqishmovchilik va taxt uchun taxt uchun kurashlardan foydalanganini bir necha bor uqtirib o`tadi. Oqibatida mamlakatni boshqarish nixoyatda murakkablashib hokimiyat nobop odamlar qo`liga tushib qolganini alohida takidlaydi. “Qo`qonda Oq masjid voqeasini sedan chiqarib aysh

ishrat, kayf-u safo, o`yin kulgu va parvosizlikka berilib mamlakat ishidan ko`z yumib Qozog`istondagi Xiroj boj va zakotni g`ayriddin millatlariga topshirib hukmronlikning g`animat bilib yomon odamlar o`g`rilarni va xarom kishilarni to`plab amaldor qilib va voliy belgilab har bir shaharga yubora boshladi. Ayrim johil mullalar va nodon ulamolar so`ziga ishonib, aholi shariatdan uzoqlashib ilmsiz johillarni mansabdorlik qilib qozi, rais, hokim, valiy lavozimlariga o`tkazdilar. Poraxo`rlik rivojlandi ishni tekshirmay aytuvchilar so`ziga amal qilinib poraxo`rlar, hushomatgo`ylar va umuman nobop odamlar hokim va mansabdor bo`ldilar. Aksincha, dono, aqlli, fozil, bilimdon kishilar xo`rlandi va oyoq osti qilindi. Kengash va maslahat bilan ish yuritishga ish yuritishga yo`l berilmadi”.

Xonliklarning o`ta darajada masuliyatsizligini uzoqni ko`ri bilmasliklari mansabdorlarning jaholatga berilib ketganlarini ko`rishimiz mumkin. Amir-u xonlar Rus hukumati tajaruvlariga yetarli darajada e`tibor bermay o`z manfaatlarini o`ylab taxt uchun o`zaro qonli kurashlar davom etayotgan paytda rus davlatining harbiy qismlari chegara hududlarini katta qismlarini bosib olishga kirishgandi. Ko`plab hududlarning bosib olinishi Rus harbiy sarkardalarning bosqinchilik siyosatini oshirib yubordi. Qo`qon xonligining siyosiy iqtisodiy markazi hisoblangan Toshkentga hujum qilinishi ahvolni yanada murakkablashtirdi. Toshkentning Rossiya tomonidan bosib olinishi osonlikcha kechmagan Toshkentni berib qo`yishmagan, ko`plab janglar bo`lgan. Toshkentga qilingan birinchi urush 1864-yilda bo`lib o`tadi. Rossiya hukumati mag`lubiyatga uchraydi. Rus harbiy sarkardalari general Chernyayev Toshkent shahrini egallashni asosiy maqsad qilib qo`ygandi. Lekin sharmandalarcha mag`lubiyatga uchrab, 1864-yil 4-oktabrda Chimkentga chekinadi. Yana hujumga tayyorlanadi. Bu paytda Toshkentdagi g`alaba Qo`qonga ma`lum bo`lganidan keyin Sulton Saidxon Alimqul bosqinchilarga qarshi harbiy tayyorgarlik ko`rishga yanada jadallik bilan kirishadilar. 1864-yilning 25-noyabrda Toshkentda xalq ularni kutib oladi. “Sulton Saidxon va Mulla Alimquli Amir lashkar-deb yozdi. Chirchiqdan o`tganda shahar ahli ulamolar, fozillar, sardorlar va shayxlar ularning qarshisiga chiqadi.

Ziyorat yig`isi bilan ko`rishib va duoga qo`l ko`tarib ularni shahardagi hukumat saroyiga olib keladilar. Ularga mijohitlar g`oziylar va shahar aholisi qatnashuvida ziyofat berildi. Afsuski bu g`alaba ko`pga cho`zilmaydi Chernyayev zudlik bilan ikkinchi marotaba Toshkentga yurish boshlaydi. Chirchiq daryosining chap qirg`og`iga joylashgan Niyozbek qal`asiga yaqinlashdi. Toshkent tomonidan uchming kishilik vatan himoyachilari bilan general Chernyayev askarlari bilan to`qnashdi. Chernyayev shundan keyin Niyozbek qal`asiga hujum davom ettirib bosib oladi. Chernyayev hoyin Abdurahmon Shodmon o`g`lining maslahati bilan Bo`zsuv tog`onini buzib Chirchiq suviga burib Toshkent shahrini suvdan mahrum etadi. Vatan himoyachilari hujumga o`tib Rus askarlarini chekinishga majbur qilganlar. Ozodlik uchun mardonavor jang olib brogan kishilar qatorida shaharda sotqin va hoyinlar ham bo`lgan. Masalan eng yirik boylardan va Rossiya bilan savdo qilib kelayotganlardan biri Saidazimboy Muhammad o`g`li va boshqa ayrim savdogarlar qo`llaridan kelguncha Rus harbiy sarkardalariga yordam berdilar. Sotqin guruhlar ko`pchilikni tashkil etmasada ular ichki sirlarini dushmanga malum qilib turishgan. Har qanday sharoitga bardosh berib Alimquli sarbozlarni ona vatan uchun jangga ruhlantirib turgan. Urush paytida

Alimquli qattiq jarohatlangani va Toshkentliklarning shahar ichiga qaytishi haqidagi ko'rsatma va vatan himoyachilarini vahimaga solib qo'ygan. Janglar orqasidan ko'rilgan katta talofatlar hamda hech qayerdan yordam kelmaganligi og'ir iqtisodiy ahvol suvsizlik himoyachilarning tinkasini quritib yubordi shu tariqa suv yo'llarining to'sib qo'yilgani yomg'irlarni o'z vaqtida o'cherish imkonini bermaydi. Alimquli shu og'ir sharoitda jarohatlangani tufayli vafot etishi askarlarning har tarafga tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Himoyachilarning yagona boshliqsiz qolishi istilochilarning qo'li ustun kelishini taminlaydi. Shu tariqa Toshkent egallab olinadi. 1865-yil 17-iyunda Chernyayev Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayhontohir Dahalarini oqsoqollarini chaqirdi. Toshkent qozikalonini Hakimxo'ja Abulqosimeshon, Solihbekdodho va shaharning boshqa nufuzli kishilari ishtirokida chernyayev Toshkent ixtiyoriy ravishda taslim bo'ldi va aholi tinchligi uchun Toshkentliklar o'zlari Rossiya askarlariga uning darvozalarini ochib berdi degan uydurma xat yozilishini talab qiladi. Oqsoqollardan to'qqiz nafari ixtiyoriy ravishda topshirish to'g'risidagi sulx imzolashga majbur bo'lishdi. Soxta xat yozilishiga qarshi bo'lgan Solihbekdodho Abulqosimeshon Hakimho'ja singari vatanparvarlar surgun qilingan. Shu tariqa Toshkent Rossiya hukumati ixtiyoriga o'tadi.

Xulosa qilsak : Taraqqiyotdan ancha ortda qolganliklari sababli texnik jihatdan past qurollangan vatan himoyachilari bosh sardorining vafoti bir guruh kishilar hoyinligi oqibatida dushmanning g'alaba qilishiga olib keladi. Shunday bo'lishiga qaramay shahar xalqi o'z ona yurtining mustaqilligi uchun kurashdilar. Vatanparvar shaxslarni mardonavor jang olib borishdi. Afsuski bosqinchilar soxtalashtirilgan malumotlar orqali go'yoki mustaqillikni saqlash uchun janglar olib borilmagan deb ko'rsatilgan. Bizning oldimizdagi asosiy vazifa ajdodlarimizning jasoratini va bosqinchilar yozib qoldirgan soxta dalillarni yuzaga chiqarishimiz dolzarb muammo hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov . Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.- T.:“Sharq”. 1998y. 29-bet
2. Muhammad Solih Toshkandiy. Tarixi jadidayi. – T.: “O'zbekiston” 2009 y. 363-b.